

Ingliz tili o'rgatishning boshlang'ich ko'nikmalari.

Xorazm viloyati Shovot tumani 26-maktab Ingliz tili fani oqituvchilari

Abdalova Shahnoza Baxadirovna

Jumabayeva Iroda Raxmatullayevna

Annatatsiya: Mazkur maqola o'rta umumta'limi boshlang'ich sinflarida ingliz tili o'rganish/o'rgatish o'z xususiyatiga ega bo'lib, maxsus o'qitish metodikasini qo'llashni taqozo etadi. O'qitish metodikasi yaxlit tizim bo'lib, ta'lim sharoiti, maqsadi, mazmuni, metodi vositasi kabi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Kalit so'zlar: Nutqiy ko'nikmalar, tahlil qilish, mohiyatini aniqlash, ko'maklashish, maqsad va vazifalari.

Kirish: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili og'zaki nutqini o'rgatish jarayoni bilan bog'liq masalalar muhokamasi bo'lib, uning predmetini esa "og'zaki nutq ko'nikmasi", ularni o'rta maktab boshlang'ich sinflari ingliz tili ta'limida shakllantirish tizimining metodik asoslari tashkil qiladi. Ayniqsa boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarni ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, chet tilini o'rganishda yanada muhim elementlardan biri, so'z boyligini shakllantirish hamda o'rgangan so'zlarni qatnashtirib, oddiy gaplar tuzish orqali o'rgangan so'zlarini mustahkamlash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, bir guruhga kiruvchi so'zlarni, ranglarni, hafta kunlarini, oylarni, fasllarni va shunga o'hshagan so'zlarni sh'er tarzida yodlatish bola ongida chuqur iz qoldiradi.

Asosiy qism: Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi-xorijiy tilda og'zaki muloqot yuritish faoliyatining tarkibiy qismi bo'lgan "gapishtish va tinglab tushunish ko'nikmalari"ni shakllantirishning metodik xususiyatlarini tahlil qilish va o'rganishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish, o'z navbatida, quyidagi vazifalarni tadqiq etishni taqozo etadi:

- xorijiy tillarni o'qitishda og'zaki nutqni o'rni, mohiyatini aniqlash va bu maqsadga mavzuga oid lingvistik, pedagogik, metodik adabiyotlarni o'rganib chiqib, ulardan tanqidiy foydalanish orqali erishish;
- og'zaki nutqning turlari hisoblangan gapirish va tinglab tushunishni farqlash va ularning tillar ta'limidagi o'rnini qiyosiy o'rganish va tahlil etish;
- og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllanishida ona tili fonetik tizimi haqidagi bilimlarning o'rni va unga tayanish imkoniyatlarini o'rganish;
- boshlang'ich sinflar uchun mo'jallangan ingliz tili darslik va o'quv qo'llanmalarida og'zaki nutq materialni yoritilishini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf darsliklaridagi og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini tahlil qilish va ularni samarali turlarini qo'llash haqidagi ko'rsatmalarni umumlashtirish;
- berilayotgan metodik ko'rsatmalarni amaliyatga tatbiq etish tamoyillarini belgilash va uslubiy yo'llarini ko'rsatish va h. k. z.

Tadqiqotning ilmiy farazi quyidagicha boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish va uning nutqiy muloqotda qo'llash malakasini egallahsga ko'maklashish maqsadida tez va oson erishishning asosiy omili xorijiy til ta'limini uni qanday maqsadda va yo'nalishda o'rganilishiga nisbatan tashkil qilish bilan bog'liqdir. Tanlangan til materialining lisoniy xususiyatlari tillararo tipologiyasi ko'rsatkichlar hamda tilga oid nutq vaziyatlarini hisobga olish asosida tuzilgan mashqlaridan foydalanish talabalarning nutqiy ko'nikmalarini shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa: Bunday vaziyatning paydo bo'lishi natijasida respublikamizda chet tillari bo'yicha yangi o'quv dasturlarga, darsliklarga, o'quv qo'llanmalarga, ilmiy ishlarga, yuqori malakali chet tili o'qituvchilariga talab kundan – kun oshib bormoqda. Shunday ekan bilim olishda hech ham charchmaylik. Xarakat qilgan har qanday inson, qaysi sohada bo'lmasin u albatta o'z niyatiga erishgay.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Adams V. S., Zimmer B. E. Understanding Psychology. –New York: McGraw-Hill Inc., 1990. –296 p.
2. Anderson Th., Forrester K. Reading then Writing: From Source to Essay.–New York: McGraw-Hill Inc., 1992. –523 p.
3. Arends R. I. Learning to Teach. –New York: McGraw-Hill Inc., 1994. –549 p.
4. Bellack A. A. The Language of the Classroom. –New York: Teachers College Press, 1996. –274 p.
5. Brumft C. Communicative Methodology in Language Teaching.–Cambridge University Press, 1992. –166 p.
6. Byrne D. Classroom Observation Tasks. – Cambridge University Press, 1992. – 120 p.